

Fir'avn huzurida



15:00 / 26.12.2021 2899

Muso va Horun Fir'avn oldiga keldilar. Saroy a'yonlari davrasida turib, uni haqqa da'vat qildilar. Muso alayhissalomning bu jur'atini ko'rib Fir'avn g'oyat

darg'azab bo'ldi va oliy va kibr holida:

- Ey yigitcha! Sen kim bo'libsanki, mening majlisimda turib menga aql o'rgatasan?! Sen daryodan tutib olganimiz o'sha go'dak emasmisan?!

U (Fir'avn): «Biz seni go'dakligingdan o'z ichimizda tarbiya qilmadikmi?! Umringning bir necha yilini bizning ichimizda o'tkazmadingmi?! Va nonko'rlardan bo'lib, qiladigan ishingni qilib qo'ymadingmi?!» dedi.

Muso g'azablanmadi. Muso yolg'on gapirmadi. Muso tonmadi. Muso uzr-bahonalar keltirmadi. Muso qo'rqmasdan, yashirmasdan, viqorli turib dedi:

U (Muso): «O'sha ishni qilgan bo'lsam, bilmasdan qilganman. Bas, sizlardan xavfsirab qochib ketdim. Keyin Alloh menga hikmat berdi va meni Payg'ambarlardan qildi. Muso alayhissalom so'zlarini davom ettirdilar:

- Ey Fir'avn! Sen meni boqib olganingni minnat qilyapsan. Lekin, bir o'ylab ko'rgin; Men sening qo'lingga tarbiyalashing uchun qanday tushib qoldim?!

- Agar sen go'daklarni qatliom qilishga buyurmaganingda onam meni Nilga oqizmasdi va men sening qo'lingga tushmasdim.
- Sening shunchalik zulmlaring, zo'ravonliklaring oldida nahot mana shu kichkina marhamating eslashga arzisa?!
- Sen qavmimni eshak va hayvon qatorida ko'rding.
- Ularni itdek haydading, xorlading! Dahshatli azoblarga solding. Endi mana shu qavmdan bir bolani boqib olgan bo'lsang nima bo'пти?!
- Yana tag'in sen bu ishni o'zing bilmagan holda qilgansan.

«O'sha menga qilayotgan minnating Bani Isroilni qul qilib olganingdandir», dedi».

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad